Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 6 2026

O’ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT SO’Z TURKUMI YASALISHINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Adambayev Umidbek Jumanazar o’g’li

O’qituvchi, Ingliz filologiyasi fakulteti, O’zDJTU

umid999adambaev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek va ingliz tillarida ot so’z turkumi yasalishining qiyosiy-tipologik jihatlari va ularning o’ziga xos lingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Har ikki til tizimida otlarning gapdagi sintaktik vazifalari hamda morfolojik tuzilishiga ko’ra turlari (sodda, yasama, murakkab) atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o’zbek tilining agglyutinativ va ingliz tilining analitik tabiati doirasida ot yasovchi affikslarning funksional imkoniyatlari qiyoslangan. Shuningdek, bir tildagi sodda otlarning ikkinchi tilda yasama yoki murakkab so’zlar orqali ifodalanish qonuniyatlari aniq misollar yordamida ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: so’z turkumi, ot, so’z yasovchi qo’chimcha, fe’l, sifat, ega, kesim, aniqlovchi, to’ldiruvchi, hol, sodda so’z, yasama so’z, murakkab so’z, qiyosiy tahlil.

Annotation: This article provides a comparative-typological analysis of noun-formation systems in the Uzbek and English languages, highlighting their distinctive linguistic features. The study explores the syntactic functions of nouns in sentences and categorizes them according to their morphological structure into simple, derived, and compound nouns. Within the framework of the agglutinative nature of Uzbek and the analytic nature of English, the functional capabilities of noun-forming affixes are

Taraqqiyot spektri

comprehensively compared. Furthermore, the article illustrates how simple nouns in one language can correspond to derived or compound structures in another, supported by specific contextual examples.

Key words: part of speech, noun, derivative affix, verb, adjective, subject, predicate, attribute, object, adverbial modifier, simple word, derived word, compound word, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ способов словообразования существительных в узбекском и английском языках, а также выявляются их специфические лингвистические особенности. В работе подробно рассматриваются синтаксические функции существительных в предложении и их классификация по морфологической структуре (простые, производные и сложные). В контексте агглютинативного строя узбекского языка и аналитического характера английского языка сопоставляются функциональные возможности словообразующих аффиксов. Кроме того, на конкретных примерах демонстрируются закономерности, при которых простые существительные одного языка выражаются производными или сложными структурами в другом.

Ключевые слова: часть речи, существительное, словообразующий аффикс, глагол, прилагательное, подлежащее, сказуемое, определение, дополнение, обстоятельство, простые слова, производные слова, сложные слова, сравнительный анализ.

Taraqqiyot spektri

Ot mustaqil so’z turkumlaridan biri bo’lib, shaxs, narsa, joy va voqea-hodisalarning nomini bildirib, **kim? nima? qayer?** so’roqlariga javob bo’ladi. Ot o’zbek tilida ham, ingliz tilida ham gapda asosan ega vazifasida keladi.

- **Masalan:** Lola plays with her friends.

- Lola do’stlari bilan o’ynadi.

Bundan tashqari, ot gapda kesim, aniqlovchi, to’ldiruvchi va hol vazifalarida ham kelishi mumkin:

- **Kesim (Predicative):** Toshkent – O’zbekistonning poytaxti. / Tashkent is the capital of Uzbekistan.
- **Aniqlovchi (Attribute):** Bu onamning sumkasi. / This is my mother’s bag.
- **To’ldiruvchi (Object):** Bozorda tog’amni uchratib qoldim. / In the market, I came across my uncle. / Yesterday I bought an interesting book.
- **O’rin holi (Adverbial modifier of place):** Men O’zbekistonda yashayman. / I live in Uzbekistan.

O’zbek tilida ham, ingliz tilida ham otlar tuzilishiga ko’ra **sodda**, **yasama** va **murakkab** otlarga bo’linadi. Asosan bir bo’g’inli so’zlar sodda otlar hisoblanadi. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: non, ota, ona, gul, bog’, bread, child, boy, girl va boshqalar. Ikki va undan ortiq bo’g’inli so’zlar ham tuzilish jihatidan sodda otlar bo’lishi mumkin: dehqon, marmar, gavhar, maktab, father, mother, school, flower.

Yasama otlar so’z negiziga so’z yasovchi qo’shimchalarni qo’shish orqali yasaladi: ish-chi, bog’-bon, gul-don, o’qit-uvchi, mustaqil-lik, work-er, garden-er, teach-er, independ-ence va shu kabilar.

Modern English possesses many deriving affixes, such as: -dom, -ship, -ment, -ation, -ism, -ist, -ness, -ess, -ity, -ty, -hood, -er, -or, -ent, -ant, -ance, -ence, -eer, -ian, -man.

Hozirgi o’zbek adabiy tilida ham ot yasovchi qo’shimchalar tizimi boy bo’lib, ularga quyidagilarni misol keltirish mumkin: -chi, -kor, -soz, -furush, -shunos, -paz, -xo’r, -boz, -xon, -navis, -gich, -ma, -(i)q, -noma, -loq, -zor, -don, -xona, -iston, -lik, -chilik, -v, -sh, -m va boshqalar.

Ikkala tilda ham otlar asosan ot, fe’l va sifat so’z turkumlariga yasovchi qo’shimchalar qo’shish orqali yasaladi:

- **Ot > Ot:** ish + chi, bog’ + bon, osh + paz, garden + er, child + hood.

Taraqqiyot spektri

- **Fe’l > Ot:** o’qit + uvchi, uch + uvchi, ek + in, un + um, teach + er, write + (e)r, develop + ment.
- **Sifat > Ot:** mustaqil + lik, ozod + lik, free + dom, dark + ness.

O’zbek va ingliz tillaridagi otlarning tuzilishiga ko’ra o’xshash va farqli jihatlarini quyidagi qiyosiy guruhlar orqali yaqqol ko’rishimiz mumkin:

1. **Ikkala tilda ham sodda ot bo’lganlar:**
   - kishi – man
   - o’g’il – boy
   - qiz – girl
   - ota – father
   - ona – mother
   - maktab – school
   - poytaxt – capital
   - baho/narx – price
2. **O’zbek tilida sodda, ingliz tilida yasama ot bo’lganlar:**
   - diktant – dictation
   - rassom – painter
   - imtihon – examination
   - shifokor – doctor
3. **O’zbek tilida yasama, ingliz tilida sodda ot bo’lganlar:**
   - injiqlik – caprice
   - baholash – estimate
   - uchuvchi – pilot
   - o’quvchi – pupil
   - oshxona – kitchen
   - go’zallik – beauty
4. **Ikkala tilda ham yasama ot bo’lganlar:**

Taraqqiyot spektri

- bog’bon – gardener
- ishchi – worker
- o’qituvchi – teacher

5. O’zbek tilida yasama, ingliz tilida murakkab ot bo’lganlar:

- podachi – cow-boy
- vahimachi – panic-monger
- tutqich – door-handle
- dorixona – drug-store
- temirchi – blacksmith

6. O’zbek tilida murakkab, ingliz tilida yasama ot bo’lganlar:

- bekor qilish – removal
- havola qilish – referral
- ishdan bo’shatish – dismissal

7. Ikkala tilda osatdan murakkab ot bo’lganlar:

- kungaboqar – sunflower
- xonqizi – ladybird

8. O’zbek tilida sodda, ingliz tilida murakkab ot bo’lganlar:

- lavlagi – beetroot
- kapalak – butterfly
- tarvuz – watermelon
- doska – blackboard

9. O’zbek tilida murakkab, ingliz tilida sodda ot bo’lganlar:

- toshbaqa – turtle
- asalari – bee
- atirgul – rose
- tuyaqush – ostrich
- oqqush – swan

Taraqqiyot spektri

Xulosa

O’zbek va ingliz tillarida ot so’z turkumi yasalish tizimini qiyosiy-tipologik jihatdan o’rganish har ikkala tilning o’ziga xos lingvistik tabiatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, har ikki tilda ham otlar gapda bir xil sintaktik vazifalarni (ega, kesim, to’ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bajaradi va morfologik tuzilishiga ko’ra uchta asosiy guruhga (sodda, yasama, murakkab) bo’linadi. Shuningdek, yangi so’z hosil qilishda affiksatsiya (qo’shimcha qo’shish) usuli ikkala tilda ham yetakchi o’rin tutadi.

Biroq, tillarning turlicha oilaga mansubligi (o’zbek tili agglyutinativ, ingliz tili flektiv/analitik) sababli jiddiy tizimli farqlar ham ko’zga tashlanadi. Xususan, bir tildagi sodda so’z ikkinchi tilda yasama yoki murakkab so’z orqali ifodalanishi, o’zbek tilida affikslar faqat so’z o’zagidan keyin (saffiks) qo’shilsa, ingliz tilida prefiksatsiya (so’z oldi qo’shimchalari) ham faol ishtirok etishi o’ziga xos farqlarni belgilaydi. Bunday o’xshash va farqli jihatlarni chuqur anglash talabalarga chet tilini tizimli o’rganishda va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buranov J., Muminov A. A practical course in English lexicology. – Toshkent: O’qituvchi, 1990.
2. Hojiyev Azim. O’zbek tili so’z yasalishi tizimi. – Toshkent: O’qituvchi, 2007.

Taraqqiyot spektri